


**DAVLAT MEHNAT INSPEKSIYASI TOMONIDAN
2025-YIL DAVOMIDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR
HISOBOTI**

TOSHKENT - 2026

I. Inspeksiya nazorati


1.1. Davlat mehnat inspeksiyasi tomonidan o'tkazilgan nazorat tadbirlari



Davlat mehnat inspeksiyasi tomonidan **2025-yil** davomida mehnat va mehnatni muhofaza qilish qonunchiligiga rioya etilishi yuzasidan **20 650 ta** nazorat tadbirlari o'tkazildi. O'tkazilgan nazorat tadbirlari davomida **46 497 ta** qonunbuzilish holatlari, shundan **33 746 tasi** mehnat va aholi bandligi

qonun hujjatlari bo'yicha va **12 751 tasi** mehnatni muhofaza qilishga oid qonunbuzilishlari aniqlandi.


Mehnat va aholi bandligi qonun hujjatlari yuzasidan **2025-yil** davomida olib borilgan nazorat tadbirlarida aniqlangan **33 746 ta** qonunbuzilishlarini sohalar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, norasmiy bandlikka oid – **6 774 ta**, ta'tillar berish tartibiga rioya etmaslik - **4 457 ta**, mehnat shartnomasiga oid – **2 798 ta**, mehnat daftarchalarini yuritishga oid – **1 275 ta**, mehnatga haq to'lashga oid – **4 855 ta**, ishdan bo'shatishga oid – **549 ta**, ish vaqti va dam olish vaqtiga oid – **492 ta**, bo'sh ish o'rinlarini yashirishga oid – **1 299 ta** va boshqa holatlarda **11 247 tani** tashkil qiladi.



Davlat mehnat inspektorlarining bevosita aralashuvi bilan **13 042 nafar** xodimning **158 mlrd. 680 mln. so'm** ish haqlari, shundan **2 705 nafar** ayollarning **22 mlrd. so'm**dan ortiq ish haqlari undirildi.

Jami **399 nafar** (shundan **192 nafari ayollar**) xodimlar noqonuniy ishdan bo'shatilganligi sababli ishga tiklandi.

Qonunbuzilish holatlarini bartaraf etish maqsadida mansabdor shaxslarga nisbatan **2025-yil** davomida **8 797 ta yozma ko'rsatma** va **238 ta taqdimnomalar** kiritildi hamda **9 019 nafar** mansabdor shaxslarga nisbatan **24,2 mlrd.** so'mlik ma'muriy jarimalar qo'llanildi.



Vazirlik tomonidan 2025-yil **15-29-avgust** kunlari “Majburiy mehnatga qarshi kurash haftaligi” o'tkazilib, haftalik davomida jami **1 567 ta** ta'lim muassasalarida tekshiruvlar o'tkazildi.

Tekshiruv natijasida jami **19 nafar** mansabdor shaxslarga nisbatan majburiy mehnatga yo'l qo'yganligi sababli, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 51-moddasiga muvofiq ma'muriy jarima qo'llanildi.

1.2. Mehnat faoliyati bilan bog'liq baxtsiz hodisalar yuzasidan maxsus tekshirishlar

Respublikada sodir bo'lgan jami **849 ta** mehnat faoliyati bilan bog'liq baxtsiz hodisalar yuzasidan maxsus tekshirishlar o'tkazildi va hisobga olindi.


Mazkur baxtsiz hodisalarning **50 tasi** guruhiiy, **583 tasi** oqibati og'ir va **216 tasi** o'lim bilan tugagan.

Sodir bo'lgan baxtsiz hodisalar oqibatida jami **961 nafar** fuqarolar jabrlangan, shundan **680 nafari** og'ir jarohatlangan, **33 nafari** yengil jarohatlangan bo'lsa, **248 nafari** mazkur baxtsiz hodisalar oqibatida vafot etgan.

Inspeksiya tomonidan **2025-yilda** baxtsiz hodisalar tufayli bir yo'la beriladigan va oyma-oy zarar pullari undirish haqidagi **285 ta** da'vo arizalar kiritilishi natijasida **209 tasi** qanotlantirilib **10 mlrd. 584 mln.** so'm miqdordagi zarar pullari ish beruvchilardan undirildi.

Baxtsiz hodisalar hududlar kesimidagi tahlillariga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasida – **47 ta**, Xorazm viloyatida – **16 ta**, Buxoro viloyatida – **92 ta**, Qashqadaryo viloyatida – **93 ta**, Samarqand viloyatida – **53 ta**, Surxondaryo viloyatida – **16 ta**, Navoiy viloyatida – **65 ta**, Jizzax viloyatida – **35 ta**, Sirdaryo viloyatida – **46 ta**, Toshkent viloyatida – **75 ta**, Namangan viloyatida – **33 ta**, Farg'ona viloyatida – **50 ta**, Andijon viloyatida – **75 ta** va Toshkent shahrida – **153 ta** baxtsiz hodisalar sodir bo'lgan.

Baxtsiz hodisalarning sohalar kesimida tahlillariga ko'ra, 2025-yil davomida Sog'liqni saqlashda – **27 ta**, Maktab ta'limida – **8 ta**, Qurilishda – **234 ta**, Transportda – **37 ta**, Yengil sanoatda – **47 ta**, Qishloq va suv xo'jaligida – **36 ta**, Olmaliq KMKda – **11 ta**, Navoiy KMKda – **22 ta**, Maktabgacha ta'limda – **8 ta**, Energetika sohasida – **34 ta**, Kimyo sanoatida – **11 ta** va boshqa sohalarda – **370 ta** baxtsiz hodisalar sodir bo'lgan.



Sodir bo'lgan baxtsiz hodisalar yuzasidan tekshirish dalolatnomalari va to'plangan hujjatlar hududiy Ichki ishlar organlariga yuborilgan va **432 nafar** mansabdor shaxslarga nisbatan **jinoiyat ishi qo'zg'atilgan**.

Shuningdek, Davlat mehnat inspeksiyasi inspektorlari tomonidan **241 nafar** mansabdor shaxslarga nisbatan **ma'muriy jarimalar qo'llanilgan**.

1.3. Paxta monitoringi

Joriy yilgi paxta terimi mavsumida **majburiy mehnat, bolalar mehnatining oldini olish, terimchilarga ish haqini o'z vaqtida to'lanishi hamda mehnat sharoitlari** yaratilganligi bo'yicha monitoringlar o'tkazish maqsadida Respublika hududida mavsum davomida munosib mehnat sharoitlarini yaratilganligini doimiy ravishda nazorat qilib boruvchi **ishchi guruhlar** tuzildi.

Mavsum davomida fuqarolar tomonidan kelib tushadigan murojaatlarni tezkorlik bilan ko'rib chiqish hamda majburiy mehnatga jalb qilish holatlarini bartaraf etish maqsadida vazirligining **"1176"** qisqa raqamli Ishonch telefoni, **"Munosibmehnat.uz"** telegram bot messengerlari **24 soat** davomida uzluksiz ishlashi yo'lga qo'yildi.

Paxta mavsumida qonun buzilishlar bo'yicha fuqarolar tomonidan jami **295 ta** murojaatlar kelib tushgan bo'lib, shulardan **268 tasi (91%)** ishonch telefoni orqali, **27 tasi (9%)** ijtimoiy tarmoqlar orqali kelib tushgan.

Shundan:

- **47 tasi (16%)** majburiy mehnatga jalb qilinganligi bo'yicha,
- **248 tasi (84%)** terim pullari o'z vaqtida berilmayotganligi bo'yicha.

Ushbu murojaatlarning **295 tasi (100%)** belgilangan tartibda o'rganib chiqildi.

Murojaatlarning **261 tasi** qanoatlantirildi, **34 ta** murojaatdagi vajlar o'z tasdig'ini topmadi.

Shundan, **245 tasi** terim pullari o'z vaqtida berilmaganligi holati aniqlanib, ushbu holat yuzasidan ish beruvchiga nisbatan yozma ko'rsatma kiritildi va terim pullari to'liq undirib berildi.

8 ta holatda majburiy mehnat holati aniqlanib, mansabdor shaxslarga nisbatan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 51-moddasi 1-qismiga asosan ma'muriy jarimalar qo'llanildi.

Paxta yig'im terim mavsumida hududlarda davlat mehnat inspektorlari tomonidan **986 ta** fermer xo'jaliklarida majburiy mehnat va bolalar mehnatini oldini olish hamda mehnat sharoitlarining yaratilishi yuzasidan monitoring tadbirlari o'tkazildi.

Monitoring davomida **129 ta** qonunbuzilish holatlari aniqlandi.

Ushbu aniqlangan qonunbuzarliklar yuzasidan **116 ta** klaster va fermer xo'jaliklari mansabdor shaxslariga nisbatan MJtKning 49-moddasi 1-qismiga asosan **232,6 mln. so'm** ma'muriy jarima hamda MJtKning 51-moddasi 1-qismiga ko'ra **8 nafar** mansabdor shaxslarga nisbatan **164,8 mln. so'm** ma'muriy jarima qo'llanildi.



Shuningdek, voyaga etmagan shaxslarni paxta yig'im-terimida ishtirokiga yo'l qo'yganligi **2 nafar** fermer xo'jaliklari rahbarlariga nisbatan MJtKning 49¹-moddasiga asosan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomalar rasmiylashtirilib jinoyat ishlari bo'yicha tuman sudlariga yuborildi.

Shu bilan birga, Qoraqalpog'iston Respublikasida **235 ta**, Namangan viloyatida **153 ta**, Buxoro viloyatida **172 ta**, Andijon viloyatida **76 ta**, Qashqadaryo viloyatida **52 ta**, Navoiy viloyatida **14 ta**, Samarqand viloyatida **74 ta**, Xorazm viloyatida **144 ta**, Farg'ona viloyatida **186 ta**, Jizzax viloyatida **52 ta**, Surxondaryo viloyatida **101 ta**, Sirdaryo viloyatida **147 ta**, Toshkent viloyatida **31 ta** terimchilar bilan mehnat shartnomasi tuzilmaganligi aniqlanib, terimchilar bilan mehnat shartnoma tuzilishi ta'minlandi.

Respublikamizning barcha hududlaridagi aholi gavjum joylarda majburiy mehnatning oldini olish borasida, **200 dan ortiq "Teng mehnat – teng haq" va "Munosib mehnat – Inson qadrini ulug'laydi"** nomi ostida bannerlar o'rnatilishi hamda **2 mingdan ortiq flayer va bukletlar** klaster va fermer xo'jaliklari, mahalla fuqarolar yig'inlari hamda ish beruvchilarga tarqatildi.



Fermer xo'jaliklari va paxta to'qimachilik klasterlarining vakillari uchun respublikaning barcha hududlarida majburiy mehnatni oldini olish, mavsumiy ishga jalb qilinadigan ishchilarni yollashda mehnat qonunchiligiga amal qilish mavzusida o'quv seminarlar o'tkazildi.

Fermer xo'jaliklari va paxta to'qimachilik klasterlarining vakillari uchun respublikaning barcha hududlarida majburiy mehnatni oldini olish, mavsumiy ishga jalb qilinadigan ishchilarni yollashda mehnat qonunchiligiga amal qilish mavzusida **27 mingdan** ortiq targ'ibot ishlari o'tkazildi.

Shundan, klasterlar va fermer xo'jaliklarida **23 500 ta**, ta'lim muassasalarida **1 014 ta**, sog'liqni saqlash tizimida **496 ta**, mahallalarda **1 590 ta**, boshqa tashkilotlar va aholi o'rtasida **987 ta** targ'ibot ishlari o'tkazildi. Mazkur tadbirlarda **500 mingdan** ortiq fuqarolar qatnashdi.

Paxta yig'im-terimi mavsumi davomida majburiy mehnatning oldini olishga hamda paxta yig'im-terimi ishlariga aholini erkin yollash, terimchilarga yaratilgan munosib mehnat sharoitlari haqida xabardorlikni oshirishga qaratilgan ijtimoiy roliklar tayyorlanib, barcha markaziy va hududiy hamda xususiy telekanallar orqali efirga uzatilishi yo'lga qo'yildi.

1.4. Norasmiy bandlikni qisqartirish

Norasmiy bandlikni qisqartirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildi.

Xususan, Davlat mehnat inspeksiyasi xodimlari hokim yordamchilari bilan birgalikda korxonalarda mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan ishchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni “Yagona milliy mehnat tizimi”ga kiritilganligi bo‘yicha xatlovlar o‘tkazildi.

Xatlovlarda **18 mingta** korxona va tashkilotlarda faoliyat yuritayotgan **469 ming nafar** ishchi xodimlardan, norasmiy ishlayotgan **88 685 nafarini** qonunchilik bo‘yicha to‘liq rasmiylashtirildi.

Ma’lumot uchun: Qoraqalpog‘iston Respublikasi – **11 724 nafar**, Andijon viloyati – **6 336 nafar**, Buxoro viloyati – **6 027 nafar**, Jizzax viloyati – **3 096 nafar**, Qashqadaryo viloyati – **835 nafar**, Navoiy viloyati – **4 524 nafar**, Namangan viloyati – **5 043 nafar**, Samarqand viloyati – **7 840 nafar**, Surxondaryo viloyati – **5 219 nafar**, Sirdaryo viloyati – **9 496 nafar**, Toshkent viloyati – **3 230 nafar**, Farg‘ona viloyati – **18 183 nafar**, Xorazm viloyati – **2 858 nafar** hamda Toshkent shahar – **4 274 nafar** norasmiy ish o‘rinlarini rasmiylashtirilgan.

Shuningdek, Toshkent shahrida joylashgan **100 ga yaqin** qurilish va umum ovqatlanish tashkilotlarida tekshirishlar o‘tkazildi.

O‘tkazilgan tekshirishlar jarayonida, **950 nafar** norasmiy ishchilar aniqlanib, belgilangan tartibda rasmiylashtirildi.

Ushbu holatlar bo‘yicha **68 nafar** mansabdor shaxslarga nisbatan **293,5 mln. so‘m** miqdorida **ma’muriy jarimalar** qo‘llanildi.



1.5. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash

Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan 2025-yil davomida **27 714 ta** murojaatlar kelib tushgan. Shundan, ayollar tomonidan **7 669 ta** murojaatlar kelib tushgan.

Shundan, **17 692 tasi qanoatlantirilgan**, **8 813 tasiga tushuntirish** berilgan.

Ushbu murojaatlarni sohalar bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak, ishga qabul qilishda qonun buzilishiga oid - **504 ta**, ishga qabul qilishni rad etilishiga oid - **257 ta**, noqonuniy ishdan bo‘shatilishiga oid – **1 347 ta**, norasmiy ishlatishga oid – **1 961 ta**, mehnat daftarchalarini yuritilishidagi qonun buzilishiga oid - **583 ta**, ish vaqtiga rioya etilmagan holatga oid - **231 ta**, ish haqi va boshqa to‘lovlarni vaqtida to‘lamaslikka oid – **13 355 ta**, ish haqidan majburiy ushlab qolishga oid - **418 ta**, majburiy mehnatga oid - **39 ta**, ayollar uchun qo‘shimcha kafolatlar qo‘llanilmaganiga oid - **107 ta**, baxtsiz hodisalarga oid - **319 ta**, tovon pulini to‘lamaslikka oid - **411 ta**, mehnat sharoitlari yaratilmaganligiga oid - **113 ta**, ish joylari attestatsiyadan o‘tkazilmaganligiga

oid - **81 ta**, mehnatni muhofaza qilishga oid - **176 ta**, boshqa masalalarga oid murojaatlar – **7 812 tani** tashkil qiladi.

Murojaatlarni o'rganib chiqish natijasi bo'yicha qonunbuzilish holatlarini bartaraf qilish maqsadida mansabdor shaxslarga nisbatan **1 263 ta yozma ko'rsatma** hamda ushbu qonunbuzilish holatlariga shart-sharoit yaratib berayotgan holatlarni bartaraf qilish bo'yicha **64 ta taqdimnoma** kiritildi.

Shuningdek, qonunbuzilish holatlariga yo'l qo'ygan **554 ta** mansabdor shaxslarga nisbatan qiymati **1,7 mlrd. so'm ma'muriy jarimalar** qo'llanildi.

O'tkazilgan nazorat tadbirlari davomida **10 528 nafar** fuqarolarning mehnat huquqlari tiklandi.

1.6. Mehnat nizolarini sud tartibida hal qilish

Davlat mehnat inspeksiyasi tomonidan **2025-yil** davomida fuqarolarning manfaatida sudlarga **4 mingdan** ortiq da'vo arizalari kiritilgan.

Xususan, **78,4 mlrd.** so'm oylik ish haqi va boshqa to'lovlarni undirish bo'yicha jami **3 737 ta** da'vo arizalari kiritildi.

Sudlar tomonidan kiritilgan da'vo arizalari ko'rib chiqilib, jami **45,2 mlrd.** so'm oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlari undirib berildi.

Shuningdek, **471 ta** ishga tiklash bilan bog'liq da'vo arizalarining **399 tasi** qanoatlantirilib, noqonuniy ishdan bo'shatilgan fuqarolar ishga tiklandi.

Baxtsiz hodisalar tufayli bir yo'la beriladigan va har oylik zarar pullari undirish haqida **9,7 mlrd.** so'mlik **285 ta** da'vo arizalari kiritilgan.

Sudlar tomonidan ushbu da'vo arizalarining **209 tasi** qanoatlantirilib, jami **9,2 mlrd.** so'm tovon pullari undirib berildi.


Bundan tashqari, oylik ish haqi va ishga tiklash masalalari eng ko'p sudlarda ko'rib chiqilib, mehnat qonunchiligi buzilishi qayd etilgan **mahalliy hokimliklar, maktab va maktabgacha ta'lim vazirligi va sog'liqni saqlash vazirligiga** nisbatan mehnat qonunchiligi buzilishiga shart-sharoit yaratib berayotgan omillarni bartaraf qilish, kelgusida bu kabi holatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha **taqdimnomalar** kiritilgan.

1.7. Targ'ibot tadbirlari

Davlat mehnat inspeksiyasi tomonidan yil davomida ish beruvchilar tomonidan mehnat to'g'risidagi qonunchilik, aholining bandligi, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi qonunchilik, mehnat to'g'risidagi boshqa huquqiy hujjatlar, mehnatni muhofaza qilish qoidalari hamda mehnat standartlari talablariga rioya etilishi bo'yicha jami **32 039 ta targ'ibot tadbirlari** o'tkazildi.

Mazkur targ'ibot tadbirlarining **90 tasi** televideniye orqali, **133 tasi** radio orqali, **2 081 tasi** internet tarmog'i orqali va **184 tasi** gazeta va jurnallar orqali o'tkazildi.

Shuningdek, **6 497 ta** targ'ibot tadbiri bevosita seminar, konferensiya va davra suhbatlari davomida, **1 860 tasi** ochiq eshiklar kunida hamda **2 971 tasi** ishonch telefon orqali tushuntirish berish yo'li bilan o'tkazildi.




Bundan tashqari, targ'ibot tadbirlarining **7 593 tasi** tadbirkorlik subyektlarida o'tkazilgan tadbirlar, **4 786 tasi** ta'lim muassasalarida o'tkazilgan tadbirlar, **2 064 tasi** mahallalarda o'tkazilgan tadbirlar va **3 780 tasi** boshqa tashkilotlar va aholi o'rtasidagi tadbirlar davomida o'tkazildi.

Targ'ibot tadbirlari asosan, munosib mehnat bo'yicha – **1 396 ta**, bolalar mehnatini oldini olish bo'yicha – **741 ta**, majburiy mehnatga yo'l qo'ymaslik va unga barham berish – **2 918 ta**, Xalqaro Mehnat tashkilotining ratifikatsiya qilingan konvensiyalari bo'yicha – **437 ta**, mehnat qonunchiligi bo'yicha – **2 630 ta**, norasmiy ish o'rinlarini rasmiylashtirish bo'yicha – **4 423 ta**, aholini ish bilan ta'minlash bo'yicha – **475 ta**, tekshirishlar, tadbirkorlik subyektlarining himoyasi bo'yicha – **303 ta**, mehnatni muhofaza qilish qonunchiligi bo'yicha – **486 ta** va boshqa masalalar bo'yicha – **8 695 ta** mavzularda o'tkazildi.

Targ'ibot tadbirlarida jami **126,2 ming** fuqarolar ishtirok etib, o'zlarini qiziqtirgan savollariga batafsil tushuntirishlar olishdi.

126,2 ming fuqarolar ishtirok etdi



Shu bilan birga, vazirlik tomonidan **har hafta dolzarb mavzular** ("Majburiy mehnatga qarshi kurashish haftaligi", Norasmiy bandlikni qisqartirish haftaligi, "Mehnatni muhofaza qilish haftaligi" va boshqa.) tanlab olinib, ushbu haftaliklar doirasida mavzular batafsil yoritib borildi.


Bu kabi, vazirlikning rasmiy veb-sahifalarida har kuni mehnat munosabatlariga bog'liq **turkum mavzular** bo'yicha maqolalar muntazam ravishda e'lon qilinib kelinmoqda.

II. Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish

2.1. Milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha tizimli ishlar

Davlat mehnat inspeksiyasi tomonidan mehnat sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2025-yil davomida Vazirlar Mahkamasi tomonidan **4 ta qaror** va **1 ta dastur** tasdiqlandi, **100 tadan** ortiq mehnatni muhofaza qilish **qoidalariga** o'zgartirishlar kiritildi va **2 ta** yangi **milliy standart** va **2 ta me'yorlar** tasdiqlandi.



Jumladan:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 21-iyuldagi **“Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimini joriy etish to'g'risida”gi 454-son** qarori qabul qilindi.

Ushbu qaror bilan tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimini rejalashtirish, faoliyat ko'rsatishini tashkil etish, ichki auditdan o'tkazish va takomillashtirish hamda mehnat xavfsizligi va gigiyenasi talablarini samarali bajarish, xavfni identifikatsiya qilish, kasbga oid (kasbiy) xavf-xatarlarni baholash va boshqarish tartiblarini o'z ichiga oluvchi Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimi to'g'risidagi namunaviy nizom tasdiqlandi.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-oktabrdagi **“Imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish huquqini beruvchi ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlarning ro'yxatini hamda ushbu ro'yxatga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi to'g'risidagi” nizomni tasdiqlash haqida”gi 637-son** qarori qabul qilindi. Bunda:

Imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish huquqini beruvchi ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlarning **ro'yxati** hamda Imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish huquqini beruvchi ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlarning ro'yxatiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi to'g'risidagi **nizom** tasdiqlandi.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-noyabrdagi **“O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 706-son** qarori tasdiqlandi. Bunda:

1) Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi to'g'risidagi nizomi;

2) Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi.

Mazkur qarorning **1-ilovasida** Davlat mehnat inspeksiyasining asosiy vazifa va funksiyalari hamda faoliyatini tashkil etish tartiblari belgilandi.

4. Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi **“Mehnatni muhofaza qilish sohasiga oid ayrim nizomlarni tasdiqlash to‘g‘risida”**gi 819-son qarori qabul qilindi. Bunda:

Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini hamda mehnatni muhofaza qilish **xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi** to‘g‘risidagi;

Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha **yo‘l-yo‘riqdan o‘tkazish, o‘qitish va bilimlarni tekshirish, malaka oshirish** hamda **qayta tayyorlash** to‘g‘risidagi;

Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha **yo‘riqnomalarni ishlab chiqish** to‘g‘risidagi;

Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha **vakil to‘g‘risidagi** nizomlar tasdiqlandi.

Ushbu qaror mehnatni muhofaza qilish sohasidagi talablarni yanada aniqlashtirish, tizimli tashkil etish va amaliyotga joriy etishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, mehnat qonunchiligini takomillashtirishga oid **5 ta** qonun loyihasi va **4 ta** Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi ishlab chiqildi hamda tegishli tartibda Hukumatga kiritildi.

III. Xalqaro hamkorlik yo‘nalishida

3.1. Xalqaro uchrashuvlar va erishilgan natijalar tahlili

2025-yilda O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi Davlat mehnat inspeksiyasi mehnatni muhofaza qilish, bandlik, raqamlashtirish hamda xalqaro mehnat standartlarini joriy etish bo‘yicha xalqaro hamkorlikni faol rivojlantirdi. Yil davomida Davlat mehnat inspeksiyasi inspektorlari nufuzli xalqaro forumlar, o‘quv-seminar va trening mashg‘ulotlarida qatnashdilar.



Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) doirasidagi hamkorlik

2025-yil 2-13-iyun kunlari Jenevada bo‘lib o‘tgan Xalqaro mehnat tashkilotining 113-sessiyasida O‘zbekistonning 81 va 129-sonli konvensiyalar bo‘yicha hisobotlari ko‘rib chiqildi. Mehnat inspeksiyasi tizimidagi islohotlar, raqamlashtirish va qonunlar ijrosi xalqaro darajada ijobiy baholandi.

XMTning Moskva byurosi va Germaniya hukumati ko‘magida amalga oshirilayotgan loyiha doirasida 2025-yil 25-avgust – 5-sentabr kunlari Turin shahridagi XMT Xalqaro o‘quv markazida Davlat mehnat inspeksiyasi xodimlari “Zamonaviy mehnat inspeksiyasi bo‘yicha trenerlarni tayyorlash” kursida qatnashdi.



Shuningdek, XMT tomonidan zo‘ravonlik va tazyiq to‘g‘risidagi 190-sonli Konvensiya bo‘yicha ikki kunlik o‘quv dasturlari doirasida Fundamental mehnat huquqlari va Mehnatni muhofaza qilish mavzusida noyabr oyida seminar-treninglar o‘tkazildi.

Kambodja va Markaziy Osiyo tajribasi

2025-yil 26-28-aprel kunlari Kambodjada XMTning “Better Work” dasturi doirasida milliy inspeksiya, bipartit boshqaruv, auditga asoslangan nazorat va “Mas’uliyatli ta’minot zanjiri (responsible supply chain)” modeli o‘rganildi.

2025-yil 9-13-iyun kunlari Qirg‘izistonda YXHT bilan hamkorlikda odam savdosiga qarshi kurashish mavzusida treninglar o‘tkazilib, idoralararo hamkorlik va inspektorlarning amaliy tayyorgarligi mustahkamlandi.

Janubiy Koreya tajribasi

2025-yil 3-9-avgust kunlari Koreya mehnat va bandlik xizmati (KLES) taklifi asosida Janubiy Koreyaga tashrif buyurildi. Koreyada uch bosqichli inspektor tayyorlash tizimi, mustaqil mehnat maslahatchilari, “aqlli” o‘lchov qurilmalari, Virtual (VR) va kengaytirilgan reallik texnologiyalari (AR) asosidagi treninglar va maktablardan boshlab mehnat xavfsizligi ta’limi joriy etilganligi o‘rganildi.



Milliy treninglar va Mehnatni muhofaza qilish haftaligi

2025-yil 28-aprel – 2-may kunlari “Butunjahon mehnatni muhofaza qilish kuni” doirasida “Mehnatni muhofaza qilish haftaligi” o‘tkazilib, ish beruvchilar va xodimlar orasida xavfsizlik madaniyatini targ‘ib qilishga qaratilgan tadbirlar tashkil etildi.

Dekabr oyida Jizzax va Toshkent viloyatlarida XMT ishtirokida Davlat mehnat inspeksiyasi xodimlari uchun trenerlar tayyorlash o‘quv kurslari doirasida seminar-treninglar o‘tkazildi.



Xalqaro forumlar va tajriba almashinuvi

2025-yil 1-4-aprel kunlari Rossiya Federatsiyasining Sankt-Peterburg shahrida bo‘lib o‘tgan IX-Xalqaro Mehnat Forumida O‘zbekiston delegatsiyasi ishtirok etdi. Forum doirasida mehnat bozorini raqamlashtirish, mehnatni muhofaza qilish, kadrlar tayyorlash va “Aqlli mehnat” o‘quv poligonlari, virtual reallik (VR) texnologiyalariga asoslangan o‘quv tizimlari bilan tanishildi. Ushbu tajribalar O‘zbekistonda mehnat xavfsizligi bo‘yicha amaliy tayyorgarlikni kuchaytirish uchun muhim model sifatida baholandi.

2025-yil 7-12-iyul kunlari Moskva viloyatida bo‘lib o‘tgan X-Butunrossiya mehnat inspeksiyalari forumida Davlat mehnat inspeksiyasi vakillari ishtirok etdi. Forumda masofaviy tekshiruvlar, “Inspektor” mobil ilovasi orqali hujjat aylanishi, raqamli nazorat va profilaktik yondashuvlar taqdim etildi.



Yevro-Osiyo mehnat inspeksiyalari mintaqaviy alyansi (ERAIT) doirasidagi hamkorlik

2011-yilda tashkil etilgan Yevro-Osiyo mehnat inspeksiyalari mintaqaviy alyansi (ERAIT) MDH davlatlari mehnat inspeksiyalari o‘rtasida mehnat munosabatlari va mehnat muhofazasi sohasida tajriba almashish hamda hamkorlikni mustahkamlash asnosida MDH davlatlarida har yili tadbirlar o‘tkazadi.

2025-yilda O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Davlat mehnat inspeksiyasi ilk bor ERAITga raislik qilib, inspeksiyaning modernizatsiya qilish, raqamlashtirish va mintaqaviy hamkorlikni kengaytirishga alohida e‘tibor qaratdi.

Raislik doirasida O'zbekiston sentabr oyida Sochi shahrida oraliq konferensiya, 31-oktyabr kuni Toshkent shahrida ERAITning 15-Bosh konferensiyasiga mezbonlik qildi. Tadbirlar davomida yillik reja ijrosi, zamonaviy nazorat usullari, noqonuniy bandlikka qarshi kurash hamda inspektorlarni rag'batlantirish masalalari muhokama qilindi.

